

GLOBALLASHUV DAVRIDA INTERNETNING YOSHLAR ONGIGA TA’SIRI.

ADPI Pedagogika va Psixologiya kafedrası
o’qituvchisi Abdulmadjidova Mahdiyona Dilmurodjon qizi
ADPI Maxsus pedagogika: logopediya
yònalishi talabasi Umaraliyeva Nilufar

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv davrida internetning yoshlar ongiga ta’siri haqida fikr yuritilgan. Bugungi kunda o’rgimcha to’ridek butun dunyoni o’z to’rlari bilan o’rab turli yoshdagi shaxslarni o’z domiga tortayotgan internet olami yoshlarni ham chetlab o’tmadi. Internetning ijobiy taraflari, foydalari bo’lgani singari uning zararlari ham yo’q emas albatta. Maqolada ushbu xususida, internetning o’sib, rivojlanib kelayotgan yoshlar ongiga ta’siri haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Globallashuv, ong, internet, virtual olam, psixika, ommaviy madaniyat, ontogenez, shaxs, rivojlanish, individum.

XXI asr - axborot texnologiyalari taraqqiyoti asri. Bugungi kun taraqqiyotini jahon axborot tarmog’i - internetsiz tasavvur qilish mushkul. Ma’lumki, internet - axborot va hujjatlarning o’zaro almashinuvini ta’minlaydigan kompyuter tarmoqlarini birlashtiradigan xalqaro tizimdir. Internet keng imkoniyatlar eshigini ochdi. Uydan ko’chaga chiqmay turib orqali dunyo kutubxonalarini bo’ylab sayr qilib, kurrai zaminning narigi chekkasida joylashgan oliy ta’lim muassasalarining masofaviy (virtual) talabasi bo’lishi, hatto elektron xizmatlarni (matnlarni tarjima qilish, video va audio mahsulotlarni tayyorlab berish, kitob va risolalarni sahifalash va hokazo) shartnoma orqali bajarish, pul berish topish mumkin. Hozirgi davrda internet tarmog’iga ulangan kompyuter, mobil telefonlari deyarli ko’pilib xonadonlarda mavjud. Bundan tashqari yoshlar internet kafelarida ham tarmoqdan foydalana oladilar. Bugungi kunda axborot texnologiyalari jadal taraqqiy etishi va ijtimoiy - iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga joriy etish sababli barcha uchun kompyuter savodxonligi dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Zamonaviy jamiyatda axborot texnologiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Internet ta’sir ostida jamiyat tarkibida o’zgarishlar yuz beradi bu olimlar uchun juda qiziqarli mavzu. Buning sababi odamlar va jamiyatga internetning salbiy va ijobiy oqibatlariga olib keladigan noaniq ta’siridir. Zamonaviy dunyoda o’z hayotingizni internetdan foydalanmasdan tasavvur qilish qiyin. Internet yordamida siz juda ko’p foydali ma’lumotlarni olishingiz mumkin. Bu har bir inson uchun hayotining ajralmas qismiga aylangan butun dunyo bo’ylab tarmog’i. Ammo ko’plab mutaxassislar internet zararli ekanligini ta’kidlaydilar, ammo avval uning foydalarini ko’rib chiqamiz.

Internetning foydali taraflari - kutubxonaga bormasdan turib kitoblarni onlayn orqali xarid qilish va mutolaa qilish, uzoqni yaqin qilish ya’ni uzoq masofadan turib gaplasha olish imkoniyati. Google web shahar va mamlakatlari o’rtasidagi chegaralarini olib tashladi - elektron pochta, ijtimoiy tarmoqlar, skype qo’ng’iroqlari, dunyoning istalgan nuqtasida odamlar bilan aloqa o’natishga imkon beradi va bu kamdan-kam va zerkadiganlar uchun juda qulaydir.

Internetning zararli taraflari - bugungi kunda internetdan foydalanuvchilarning ko’pchiligini yoshlar tashkil etgan holda uning katta qismini o’quvchi o’smirlar tashkil etmoqda. Kompyuter o’yinlar yoshlarning vaqtini o’g’irlamoqda. Internet klublarida yoshlar ayni o’qib ilm hosil qiladigan paytlarda vaqtini bekorchi o’yinlarga ijtimoiy tarmoqlarda mutlaqo notanish shaxslar bilan qimmatli vaqtini tanishishga sarflayotgani tashvishli holat. Chunki internet va kompyuter o’yinlari asriyga aylangan o’smirlar hayotdan, ilm olish, kasb o’rganishdan va ma’naviy qadriyatlardan tamoman uzunlik butunlay manqurtlashib bordi.

Yoshlar birma turli xil tarmoqlar karvishlari orqali tahdidlari va aldovlarga uchramoqda. Zero, har qanday xabar to’g’ri va xolis bo’lavermaydi.

Virtual voqelik va keber madaniyat kishilarning fe’l-atvorini osonlik chet dasturlashtirish imkoniyatini beryapti ya’ni yoshlar ongi ichki dunyosi va qalbini yod g’oyalar ekanlashda eng oson harakatga aylandi. Bu borada mamlakat prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini aytib o’tish zarur: "Bugungi tez o’zgaryotgan dunyo insoniyat oldida yoshlar oldida, yangi-yangi buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari surilgan ko’rilmagan turli yovuzlik ham xatirlarga hamdu chor qilmoqda. G’arazli kuchlar sodda, g’o’r bolalarni o’z ota-onasiga, o’z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga murojaka zomin bo’lmoqda. Bunday keskin tahlilkali sharoitda biz ota-onalar, ustoz murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko’y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarning qo’liga berib qo’ymasdan ularni o’zimiz tarbiyalashimiz lozim”. [1.25b.] To’g’ri, haqiqatni rad etmagan holda shuni alohida ta’kidlab o’tishimiz kerakki, internet tarmoqlari ta’lim olish yoki do’stlar bilan muloqot qilishning ajoyib vositasidir. Shu boisdan ham, internet tarmoqlaridan foydalanuvchilar soni yildan yilga oshib borayotganligini inobatga olsak, axborot manual sifatida OAV, internerdan axborotlar izlash kundan kunga jadallashmoqda. Bu esa qaysi sohaga oid bo’lishidan qat’iy nazar internetning milliy segmenting o’z axborotlarimizni tobora ko’paytirib borinini taqozo stadium.

Xulosa o’rnida shuni aytishimiz kerakki, har qanday mafkuraviy, ma’naviy va axborot tahdidlariga qarshi kurashda muhtaram prezidentimizning asarlari dastur amal vazifasini bajarish kerak. Jumladan "Besh muhim tashabbus va Harakatlar strategiyasi" buning yorqin timsoli hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, global o’zgarishlar davrida, jamiyatda axborot tahdidlariga qarshi samarali kurashish omillaridan biri alohida, ayniqsa, yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirish bo’lsa, ikkinchisi - mamlakatda yangi texnologiyalarni egallash va uni barcha sohalarga keng joriy etish bo’yicha kechiktirib bo’lmaydigan chora tadbirlarni amalga oshirishdir. Uchinchidan, turli xil ma’naviy tahdidlarni oldini olishda yoshlarda olinayotgan ma’lumotlarni ajratib olish savodxonligini shakllantirish, ulardan foydalanish bo’yicha tavsiyalar berish, axborot xurujlariga nisbatan targ’ibot ishlarini olib borish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashi kerak. Shundagina ma’naviyatli tahdidlar va axborot xuruji yoshlarni yo’ldan og’dira olmaydi. Yana shuni xulosa qilib aytishimiz mumkinki, internetning yoshlar tarbiyasida o’ziga xos bo’lishi va o’zgaruvchan jihatini kengaytirish sababli, bu mavzu juda muhimdir. Yoshlar uchun internet darslarni texnologiyani o’rganish, kompyuter va internetni foydalanishni ma’naviyat bilan bog’liqlikni tushuntirish va qo’llash, aloqa qilish, ma’lumot topish va ularningdan foydalanish qobiliyatlari internetning yoshlar tarbiyasidagi o’rni katta ahamiyat saqlaydi. Shunday qilib, internetning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati katta. Bu ularning o’z fikr-mulohazalarini shakllantirish, yangiliklarda ishtirok etish va o’zlarini rivojlantirishlari uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Foydalangan adabiyotlar ro’yxati:

1. Sh. M. Mirziyoyev "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash, yurt taraqqiyot va xalq farovonligining garovi". T.: O'zbekiston, 2017. - B. 25 - bet.
2. I. H. Qo'ng'irov va Sh. I. Kungirova " Globallashuv sharoitida axborot tahdidlarga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarni yaratish muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari T: 2020 yil, B - 191.
3. N. Y. Karimovna (2022). " Yoshlarda internetga tobelik muammolari. Ta'lim va rivojlanish tahlili " onlayn ilmiy jurnal 2 (12).
4. O'lmasjonovich, Xurshid Samatov "Insonlarning o'zaro ta'sirining mistik va falsafiy asoslari". (2021).